

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI VA DAROMAD MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYALASH DARAJASINI BAHOLASH

Xalikov Akmal Xolboyevich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.22805288>

Qabul qilindi: 9-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 16-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 17-sentabr 2026-yil

Zamonaviy sharoitda davlat oliy ta’lim muassasalarining barqaror rivojlanishi faqat budjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmiga emas, balki ularning mustaqil daromad shakllantirish salohiyati va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash darajasiga ham bog‘liq. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning strategik asoslari Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847- son Farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan bo‘lib, unda oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda investitsiyaviy jozibadorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan.¹ Mazkur yo‘nalish 2021-yil 24-dekabrda PQ-61- son qaror bilan amaliy jihatdan rivojlantirilib, moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalariga to‘lov-kontrakt qiymatini belgilash, mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlarini mustaqil aniqlash hamda daromad va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash vakolatlari berildi². Shuningdek, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida oliy ta’lim qamrovini kamida 50 foizga yetkazish, 10 ta oliy ta’lim muassasasini dunyoning “Top-1000” universitetlari qatoriga kiritish va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini 70 foizga yetkazish kabi vazifalarning belgilanishi ko‘p manbali va barqaror moliyalashtirish tizimini shakllantirish zaruratini kuchaytiradi³.

Biroq budjetdan tashqari mablag‘lar ulushining yuqoriligi daromad manbalari yetarlicha diversifikatsiyalanganini avtomatik ravishda anglatmaydi. Agar ushbu mablag‘larning asosiy qismi to‘lov-kontrakt tushumlari hisobidan shakllansa, davlat budjetiga bog‘liqlikning kamayishi talabalar kontingenti, aholining to‘lov qobiliyati va ta’lim xizmatlari bozoridagi o‘zgarishlarga bog‘liqlikning kuchayishi bilan almashinadi. Xalqaro tadqiqotlarda daromadlar diversifikatsiyasi oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy xatarlarini taqsimlash va uzoq muddatli barqarorligini oshirish vositasi sifatida baholansa-da, uning samarasi tushumlar hajmidan tashqari, daromad portfelining tarkibi va konsratsiya darajasiga ham bog‘liq⁴. Shu sababli 2020–2025-yillarda O‘zbekiston davlat oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi hamda daromad manbalarini diversifikatsiyalash darajasini o‘zaro bog‘liqlikda baholash, mavjud tarkibiy muammolarni aniqlash va ko‘p manbali moliyalashtirish modelini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, 8-oktabr). *O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida* (PF-5847-son Farmon).

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021, 24-dekabr). *Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida*.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, 11-sentabr). *“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida*

⁴ Jaafar, J. A., Latiff, A. R. A., Daud, Z. M., & Osman, M. N. H. (2023). Does revenue diversification strategy affect the financial sustainability of Malaysian public universities? A panel data analysis. *Higher Education Policy*, 36(1), 116–143.

Xalqaro adabiyotlarda davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi davlat moliyalashtirishini to'liq almashtirish emas, balki moliyaviy xatarlarni turli daromad manbalari o'rtasida taqsimlash imkoniyati sifatida talqin qilinadi. Johnstone oliy ta'lim xarajatlarini davlat, talabalar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida taqsimlash global tendensiyaga aylanganini ta'kidlaydi, biroq ta'lim to'lovlariga ortiqcha tayanish moliyaviy yukni talabalar va ularning oilalariga o'tkazishi mumkinligini ko'rsatadi⁵. Teixeira va Koryakina Portugaliya oliy ta'lim tizimini tahlil qilib, moliyaviy mustaqillik va daromadlarni diversifikatsiyalash bo'yicha huquqiy islohotlar amaldagi moliyalashtirish tarkibida har doim ham sezilarli o'zgarishlarga olib kelmasligini aniqlagan; bu holat institutsional imkoniyatlar, faoliyat yo'nalishi va tashqi moliyaviy muhitning muhimligini ko'rsatadi⁶. Jaafar va hammualliflar esa Malayziyadagi 20 ta davlat universitetining panel ma'lumotlari asosida Herfindal–Hirshman indeksidan foydalanib, daromadlar diversifikatsiyasi aktivlar rentabelligi orqali o'lchangan moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan, ammo sof foyda marjasi bo'yicha ushbu bog'liqlik tasdiqlanmagan⁷. Ushbu tadqiqotlar daromadlarni diversifikatsiyalash moliyaviy barqarorlikni oshirishi mumkinligi yuzasidan umumiy xulosaga kelsa-da, ularning natijalari mamlakatning moliyalashtirish modeli va barqarorlikni o'lchash usuliga bog'liq. O'zbekiston bo'yicha mavjud bo'shliq esa budjetdan tashqari mablag'larning yuqori ulushi haqiqiy diversifikatsiyani anglatadimi yoki to'lov-kontrakt tushumlariga konsentratsiyalashuvning boshqa ko'rinishimi, degan masalaning yetarlicha miqdoriy baholanmaganida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi davlat oliy ta'lim muassasalarining 2020–2025-yillarga oid davlat budjeti mablag'lari, to'lov-kontrakt tushumlari, xo'jalik shartnomalaridan tushumlar va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlari tashkil etadi. Tahlilda dinamik, tarkibiy va qiyosiy usullar qo'llanilib, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti budjetdan tashqari mablag'larning davlat budjeti mablag'lariga nisbati, ya'ni $K_{MM} = BM/DB$ orqali aniqlandi. Daromad manbalarini diversifikatsiyalash darajasi esa Herfindal–Hirshman yondashuvining teskari shakli, ya'ni $D = 1 - \sum_{i=1}^n s_i^2$ formulasi asosida hisoblandi; bunda s_i har bir moliyalashtirish manbasining jami mablag'lardagi ulushini anglatadi. D koeffitsiyentining oshishi daromadlarning manbalar o'rtasida nisbatan muvozanatli taqsimlanganini, pasayishi esa moliyaviy resurslarning muayyan manbada konsentratsiyalashganini bildiradi. Tadqiqot olti yillik agregat ma'lumotlarga asoslangani sababli natijalar sababiy bog'lanish sifatida emas, balki moliyalashtirish tarkibi va uning dinamikasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar sifatida talqin qilindi.

2020–2025-yillarda davlat oliy ta'lim muassasalarining jami moliyalashtirish hajmi 4 566,2 mlrd so'mdan 16 688,4 mlrd so'mga yetib, 3,66 barobar oshgan. Davlat budjeti mablag'lari shu davrda 1 227,1 mlrd so'mdan 4 336,0 mlrd so'mga, budjetdan tashqari mablag'lar esa 3 339,1 mlrd so'mdan 12 352,3 mlrd so'mga ko'paygan. Budjetdan tashqari mablag'larning jami moliyalashtirishdagi ulushi barcha yillarda 72 foizdan yuqori bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich 2021-yilda — 79,34 foizni tashkil etgan. Bu natija davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslari asosan budjetdan tashqari tushumlar hisobidan shakllanayotganini ko'rsatadi. Biroq qiymatlar joriy narxlarda keltirilgani sababli jami moliyalashtirishning 3,66 barobar o'sishini real moliyaviy imkoniyatlarning aynan shuncha kengayishi sifatida talqin qilish mumkin emas.

1-jadval

O'zbekiston davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va daromad manbalarini diversifikatsiyalash ko'rsatkichlari

Yil	Jami moliyalashtirish, mlrd so'm	Budjetdan tashqari mablag'lar ulushi, %	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	Diversifikatsiya koeffitsiyenti
-----	----------------------------------	---	--------------------------------------	---------------------------------

⁵ Johnstone, D. B. (2004). The economics and politics of cost sharing in higher education: Comparative perspectives. *Economics of Education Review*, 23(4), 403–410.

⁶ Teixeira, P., & Koryakina, T. (2013). Funding reforms and revenue diversification—Patterns, challenges and rhetoric. *Studies in Higher Education*, 38(2), 174–191.

⁷ Jaafar, J. A., Latiff, A. R. A., Daud, Z. M., & Osman, M. N. H. (2023). Does revenue diversification strategy affect the financial sustainability of Malaysian public universities? A panel data analysis. *Higher Education Policy*, 36(1), 116–143.

2020	4 566,2	73,13	2,721	0,410
2021	6 805,0	79,34	3,841	0,349
2022	9 170,2	74,10	2,861	0,407
2023	11 882,5	72,04	2,576	0,429
2024	14 793,3	72,40	2,622	0,427
2025	16 688,4	74,02	2,849	0,413

Manba: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 2020-yildagi 2,721 dan 2021-yilda 3,841 gacha oshgan, keyinchalik esa 2023-yilda 2,576 gacha pasayib, 2025-yilda 2,849 ni tashkil etgan. Demak, 2025-yilda davlat budjetidan ajratilgan har bir so'mga 2,849 so'm budjetdan tashqari mablag' to'g'ri kelgan. Koeffitsiyent 2020-yilga nisbatan 4,7 foizga oshgan bo'lsa-da, uning davr davomida 2,576-3,841 oralig'ida o'zgarishi moliyaviy mustaqillik barqaror o'sish trayektoriyasiga ega bo'lmaganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2021-yilda moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining eng yuqori darajaga chiqishi diversifikatsiya koeffitsiyentining eng past - 0,349 qiymati bilan bir vaqtga to'g'ri kelgan. Bu holat budjetdan tashqari tushumlarning ko'payishi o'z-o'zidan daromad portfelining muvozanatlashganini anglatmasligini tasdiqlaydi.

Diversifikatsiya koeffitsiyenti 2020-yilda 0,410 bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 14,9 foizga qisqarib, 0,349 ga tushgan. Keyingi davrda ko'rsatkich tiklanib, 2023-yilda 0,429, 2024-yilda 0,427 va 2025-yilda 0,413 ni tashkil etgan. Shunga qaramay, 2025-yilgi qiymat 2020-yil darajasidan atigi 0,003 punktga yuqori bo'lib, olti yil davomida daromadlar diversifikatsiyasida sezilarli tarkibiy siljish yuz bermaganini anglatadi. Buning asosiy sababi budjetdan tashqari mablag'larning katta qismi to'lov-kontrakt tushumlari hisobidan shakllanganidir. Xususan, to'lov-kontrakt tushumlari 2020-yilda budjetdan tashqari mablag'larning 98,42 foizini, 2025-yilda esa 97,36 foizini tashkil etgan. Xo'jalik shartnomalari va boshqa budjetdan tashqari tushumlarning birgalikdagi ulushi 2025-yilda ham atigi 2,64 foiz bo'lib qolgan. Demak, davlat budjetiga nisbatan moliyaviy mustaqillik nisbatan yuqori bo'lsa-da, budjetdan tashqari daromadlarning ichki tarkibi bir manbaga kuchli konsentratsiyalashgan.

Olingan natijalar Teixeira va Koryakinaning moliyaviy mustaqillikni kengaytirishga qaratilgan huquqiy islohotlar universitetlar daromadlari tarkibida avtomatik ravishda sezilarli diversifikatsiyani yuzaga keltirmasligi haqidagi xulosasiga mos keladi. Shuningdek, Jaafar va hammualliflar aniqlaganidek, daromad manbalarini diversifikatsiyalash moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir qilishi mumkin, ammo bunday natija universitetlarning muqobil daromad yaratish imkoniyatlari va moliyaviy barqarorlikni baholash usuliga bog'liq. O'zbekiston sharoitida muammo budjetdan tashqari tushumlarning yetishmasligida emas, balki ularning to'lov-kontrakt mablag'larida yuqori darajada konsentratsiyalashganida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish siyosati kontrakt narxi yoki talabalar sonini oshirish bilan cheklanmasdan, ilmiy grantlar, xo'jalik shartnomalari, innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, konsalting xizmatlari, davlat-xususiy sheriklik va endaument mablag'larini rivojlantirishga yo'naltirilishi zarur.

Xulosa

Tadqiqot natijalari 2020–2025-yillarda O'zbekiston davlat oliy ta'lim muassasalarining jami moliyaviy resurslari sezilarli oshgani va budjetdan tashqari mablag'lar moliyalashtirish tarkibida ustuvor o'rin egallaganini ko'rsatdi, biroq bu jarayon daromad manbalarining sifat jihatidan diversifikatsiyalashuvi bilan yetarlicha mustahkamlanmagan. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining 2025-yilda 2,849 ga yetishi davlat budjetining har bir so'miga qariyb 2,85 so'm budjetdan tashqari mablag' to'g'ri kelganini anglatadi-da, ushbu mablag'larning 97,36 foizi to'lov-kontrakt tushumlari hisobidan shakllangani moliyaviy risklarning bitta manbada saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Shuning uchun davlat oliy ta'lim muassasalarining haqiqiy moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda moliyalashtirish hajmini oshirishdan ko'ra ilmiy-tadqiqot grantlari, xo'jalik shartnomalari, innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, konsalting xizmatlari, biznes bilan hamkorlik va endaument mablag'lari ulushini kengaytirishga asoslangan ko'p manbali daromad portfelini shakllantirish ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF–5847-son Farmon. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil, 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–61-son qaror. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-5793251>
3. Jaafar, J. A., Latiff, A. R. A., Daud, Z. M., & Osman, M. N. H. (2023). Does revenue diversification strategy affect the financial sustainability of Malaysian public universities? A panel data analysis. *Higher Education Policy*, 36(1), 116–143. <https://doi.org/10.1057/s41307-021-00247-9>
4. Johnstone, D. B. (2004). The economics and politics of cost sharing in higher education: Comparative perspectives. *Economics of Education Review*, 23(4), 403–410. <https://doi.org/10.1016/j.econedurev.2003.09.004>
5. Teixeira, P., & Koryakina, T. (2013). Funding reforms and revenue diversification—Patterns, challenges and rhetoric. *Studies in Higher Education*, 38(2), 174–191. <https://doi.org/10.1080/03075079.2011.573844>
6. Ngcobo, X. M., Marimuthu, F., & Stainbank, L. J. (2024). Revenue sourcing for the financial sustainability of a university of technology: An exploratory study. *Cogent Education*, 11(1), Article 2295173. <https://doi.org/10.1080/2331186X.2023.2295173>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. *Davlat oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishning 2020–2025-yillardagi ko‘rsatkichlari*.